


Seysmik xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi

Ma'lumki, 2022-yil 30-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-144-sonli Farmoni qabul qilindi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Fanlar akademiyasi (Seysmologiya instituti, Mexanika inshootlar seysmik mustahkamligi instituti), Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Qurilish vazirligi mutasaddilari ishtirokida mazkur Farmonning mazmun-mohiyati, belgilangan vazifalarga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi.





Ushbu Farmonning asosiy maqsadlari bu “O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Qonun ijrosini ta’minlash va shu sohada bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va zamon talabidan kelib chiqqan holda aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir.

Mamlakatimizning 78 % yer maydoni seysmik faol hududlarda joylashgan bo’lib, MSK – 64 shkalasi bo'yicha 6 va undan yuqori ballik yer silkinishlari doimiy ravishda sodir bo'lishi kuzatiladi. Dunyodagi kuchli zilzilalar oqibatlari shuni ko'rsatadi, agar hududlardagi seysmik xavfni baholash o'z vaqtida o'tkazilsa, uni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar va rejalar tayyorlansa hamda undan foydalanilsa aholi uchun falokat ko'rsatkichi va moddiy zarar qiymatini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Shu sababli, mamlakatimizda seysmik xavfni oldini olish, aholi va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish tizimini doimiy takomillashtirib borish va sohada aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirish juda zarurdir.

Farmonga ko'ra, Fanlar akademiyasi respublikada seysmik xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida:

seysmik xavfni turli masshtablarda baholash, seysmik jihatdan hududlashtirish, zilzilalarni vaqt kesimida prognoz qilish, binolar va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha uslubiyatlarni ishlab chiqadi;

turli seysmik xavflarning muhandislik-geologik asoslarini va baholash texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi;

seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

zilzilalar yuz berishi ehtimolini aniqlashning, seysmik xavfni va seysmik xatarni baholashning zamonaviy usullarini ishlab chiqadi;

hududlarning seysmik xavfi va seysmik xatariga doir har xil masshtabli xaritalarini tuzadi;

suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshligini doimiy nazorat qilish usullarini ishlab chiqadi hamda instrumental seysmologik va seysmometrik kuzatuv ma'lumotlari asosida suv omborlari to'g'onlarining dinamik xossalarini o'rganib, ularning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholaydi;

seysmik faol zonalarda qurilish normalari va qoidalarini takomillashtirishda ishtirok etadi.

Shuningdek, Farmonda ko'p kvartirali uy-joylarni yillar kesimida zilzilabardoshlik bo'yicha xatlovdan o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Xatlov natijasiga ko'ra ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan seysmik zaif va avariya alomatlari aniqlangan ko'p kvartirali uy-joylar o'rnida bosqichma-bosqich yangi uy-joylar

qurish bo'yicha takliflar mahalliy davlat hokimiyati organlariga kiritib boriladi.

Bunda, seysmik zaif uy-joylarni ta'mirlash yoki yangisini qurish, uy-joylarda yashayotgan axolining to'la xaq-xuquqini ta'minlagan xolda amalga oshirilishi shart.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi ko'p kvartirali uy-joylarni zilzilabardoshlik bo'yicha xatlovdan o'tkazishga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvi organi etib belgilangan.

Matbuot anjumani yakunida ommaviy axborot vositalari vakillari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.